

ISSN 2181-1792

FILOLOGIK TADQIQOTLAR

ILMIY
JURNAL

2024-YIL, OKTABR

FILOLOGIK TADQIQOTLAR

ILMIY JURNAL №1 (2024-YIL, OKTABR)

FILOLOGIK TADQIQOTLAR

ilmiy jurnal

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научный журнал

PHILOLOGICAL RESEARCH

scientific journal

№ 1 (2024-YIL, OKTABR)

FILOLOGIK TADQIQOTLAR

ILMIY JURNAL №1 (2024-YIL, OKTABR)

Ilmiy jurnal

Bosh muharrir: Xudoyqulov Akbar

Muassis: “Filolog” MCHJ

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Soatova Nodira

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti Adminstratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 08.01.2021-yilda
1147 raqami bilan davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Mas’ul kotib: Alimov Ozod

Tahrir hay’ati:

Abdushukurov Baxtiyor
Alimuhammedov Rixsitilla
Asadov Maqsud
Bekova Nazzora
Boltaboyev Hamidulla
Jo‘rayev Jaloliddin
Jo‘rayev Jamoliddin
Mullaxo‘jayeva Ra‘no
Rahmonov Nasimxon
Sariyev San‘atjon
Sodiqov Qosimjon
Tog‘ayev To‘lqin
Yusupova Dilnavoz
Qosimov Abdug‘afur
Qorayev Sherxon
Erkinov Aftondil
Hasanov Nodirxon
Hamroyeva Orzigul

ISSN 2181–1792

№ 1

2024

Tahririyat:

Muharrirlar: Fayzullayeva Shaxnoza

Texnik muharrir: Rustamov Anvar

Sahifalovchi va dizayner: Qodirov

Humoyun

Toshkent 2024

«Filologik tadqiqotlar» jurnali – filologiyaning dolzarb mavzulariga
bag‘ishlangan o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi ilmiy maqolalarni nashr qiladi.

SHOIR BADIY MAQSADINING QOFIYADA AKS ETISHI

Hamroyeva Orzigul Jalolovna

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori v.b., filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Bayt va misra tarkibidagi har bir unsur shoir badiiy maqsadining in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. She'r vazni, qofiyasi, radifi, badiiy san'atlarning tanlanishi shoir ifodalamoqchi bo'lgan fikr va tuyg'uning asosini tashkil qiladi. Ayniqsa, she'rning qofiya va radifida bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiy ijodi, lirik merosi o'ziga xos poetik tuzilishga ega bo'lib, shoir g'azallarining qofiya tizimi bevosita she'r mazmunini belgilab beradi. Maqolada Navoiy badiiy maqsadining qofiya tiziimida aks etishi borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: qofiya, radif, poetika, hojib, misra, bayt, qofiya harflari, qofiya harakatlari, she'r, badiiy vositalar.

Аннотация. Каждый элемент бейта и строки является отражением художественного замысла поэта. Вес стиха, его рифма, реди́ф и выбор художественных приемов формируют основу мыслей и чувств, которые хочет передать поэт. Особенно эта закономерность проявляется в рифме и реди́фе стиха. Творчество Алишера Навои, его лирическое наследие обладают уникальной поэтической структурой, где рифменная система стихов напрямую определяет содержание. В статье рассматриваются взгляды на отображение художественного замысла Навои в его рифменной системе.

Ключевые слова: рифма, реди́ф, поэтика, хожи́б, строка, бейт, рифменные буквы, рифменные действия, стих, художественные средства.

Annotation. Each element within a couplet and verse manifests as a reflection of the poet's artistic intent. The rhythm, rhyme, refrain, and selection of artistic techniques form the foundation of the thoughts and emotions that the poet wishes to express. This is especially evident in the rhyme and refrain of the poem. Alisher Navoi's works possess a unique poetic structure, and the rhyme system of his ghazals directly defines the content of the poem. The article discusses how Navoi's artistic purpose is reflected in the rhyme system.

Keywords: rhyme, refrain, poetics, hojib, verse, couplet, rhyme letters, rhyme movements, poem, artistic devices.

Qofiya shunchaki misra so'ngida keluvchi takrorlarga asoslanuvchi unsur bo'lmay, she'r mohiyatini yetkazishda muhim ahamiyat kasb etuvchi komponentlardan biridir. Navoiyning asarlari barcha jihatdan nihoyat darajada rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ularda voqea, qahramon, tabiat, narsa, buyum, inshoot, makon va zamon ham, tasvir va bayon ham, vazn, qofiya, saj' va badiiy vositalar ham bir asarda har bobda, har faslda, har bayt va har jumlada turlichadir. Shu bilan birga boshqalariga nisbati yo'q na bir bob, na bir fasl, na bir bayt yoki jumla, na bir so'z, na bir ma'no va na bir tovush bor [4, 382].

Qofiyaning she'rdagi badiiy vazifasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, tanlangan qofiya o'zining tub mohiyati, teranligi, ohangdorligi, badiiy qiymati va hatto tovushlar uyg'unligi jihatidan butun bir sistema sifatida she'r badiiy qimmatini belgilab beradi. Unda shoirning poetik tafakkuri yaqqol ko'zga tashlanadi. She'riy janrlar va ularning mazmuniy va shakliy xususiyatlari bayt va misralar zamirida qanday qofiya keltirilishiga ta'sir ko'rsatadi. Birgina g'azal janrining mavzu jihatidan har bir turida bir-biridan farqli mazmun va shaklga mos qofiya keltiriladi. Qofiya orqali g'azalning pafos va ruhi belgilanadi. Demakki, qofiya shunchaki ohangdorlik unsuri emas,

she'r mohiyatini belgiluvchi muhim poetik birliklardan biridir. Quyida Navoiy lirik merosida, xususan, g'azallarida qofiya g'azal mohiyatiga qay darajada ta'sir ko'rsata olganligi jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Navoiyning oshiqona, ma'shuqa diydori ilinjida qiynalayotgan oshiq qiyofasi chizilgan, ayрилиq motivi aks etgan g'azallarida lirik qahramonning iztiroblari tanosub san'ati asosida shu mazmuniy uyaga birlashuvchi qofiyadosh so'zlar orqali singdiriladi. Ayni mana shu qofiyadosh so'zlar oshiq holatini anglashning asosiy vositasi vazifasini bajaradi. Navoiyning "Navodir ush-shabob" devoni tarkibidagi "Aylar" radifi bilan yozilgan 185-g'azalida keltirilgan *shitob*, *xarob*, *intixob*, *tob*, *sahob*, *iztirob*, *azob*, *behisob*, *iktisob*, *hubob*, *ijtinob*, *la'li nob* qofiyadosh so'zlari oshiq holatini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etgan. G'azal baytlarida keltirilgan qofiyadosh so'zlar oshiqning ahvoli haqida yetarlicha ma'lumot berish imkoniyatiga ega.

Ko'ngul ko'zlar yo'lin tutmoqqa hajringda *shitob* aylar,
Birin tutquncha birning sayli olamni *xarob* aylar.

Matla'da keltirilgan *shitob* so'zi oshiq qo'nglining ma'shuqa yo'liga ko'zlari nigoron holda oshiqayotgani tasvirini kuchaytirib bergan. Oshiqning ko'ngli va ko'zi ma'shuqa tomon shunchalik shoshilyaptiki, oshiq ularni boshqara olmayapti. Bu holat ikkinchi misra orqali oydinlashadi, *xarob* so'zidagi mazmun natijani ko'rsatib beradi. Lirik qahramon ko'ngli yoki ko'zini boshqarishga, idora qilishga harakat qilyapti, biroq bu imkonsiz, birini tutquncha ikkinchisi izrobi bilan olamni *xarob* qilyapti. Mubolag'a orqali berilayotgan bu tasvir, misradagi *sayli* so'zi orqali oshiqning qaysi a'zosini boshqara olmagan va u olamni *xarob* qilgani oydinlashadi. Bu - ko'z.

Demakki, shoir g'azal mohiyatini qofiyada aks eetiryapti. Qofiya butun g'azal mohiyatini belgilab beryapti. Shoirning "*Bo'lg'usidur*" radifi bilan yozilgan oshiqona g'azalida esa garchi yuqoridagi g'azal kabi bu g'azal ham ishqiy mavzuda yozilgan bo'lsa-da, undagi qofiyadosh so'zlar shoir bu g'azalni boshqa mazmun va uslubda yozganini ko'rsatib beradi.

Jonda ishqing bo'lg'usi, to tanda *jon* bo'lg'usidur.

Tanda jondek *jon* aro ishqing *nihon* bo'lg'usidur.

G'azalga tanlab olingan *jon*, *nihon*, *makon*, *nishon*, *qon*, *notavon*, *doston*, *oshiyon*, *fig'on*, *nardbon* kabi qofiyadosh so'zlar o'z ishqini himoya qilayotgan, ko'nglida jo qilgan, uni asrashga harakat qilayotgan oshiq qiyofasini gavdalandirishga xizmat qilgan. O'ziga xos tanosub, takrir radd san'atlari orqali ifodalangan matla' va undagi *jon* so'zining ishlatishi urg'u aynan *jon* so'ziga tushganini ko'rsatadi. Navoiy ijodida ishqning ko'ngilda joy bo'lish o'rni va darajasi oshiq maqomotini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri sifatida ta'riflanadi. Haqiqiy oshiqning ishqiga *jon* ato qilinganidan boshlab ruh bilan birga tanga kirishi mohiyati shoirning "Xamsa" dostonlari qahramonlari ishq maqomotini belgilovchi asosiy mezon sifatida keltiriladi. Ayni baytda ham shoir tanidagi *jon*ni ishq bilan bog'layapti. Jonda ishqning bo'lishi uning tirikligi bilan bog'liq, tanida *joni* borki, u faqat ishq bilan yashaydi. Keyingi misradagi *nihon* so'zi bevosita yuqorida *jon* so'zining sifatidan kelib chiqqan holda tanlangan. Tan ichida *jon* qanchalar yashirin, *pinhon* bo'lsa, oshiqning ishq ham shu qadar *nihon*. *Pinhon*, *nihon*, *yashirin* kabi so'zlar garchi sinonimik qatorni hosil qilsa-da, ularning ham birida xos nozik mazmun bor. *Nihon* so'zi eng nozik *pinhoni* mazmunga ega bo'lib, shoir bu so'z orqali yashiringanlikning eng yuqori nuqtasini berishni maqsad qilgan.

To tirikturmen ichiga jola tushkan g'unchadek,
Xasta ko'nglum durri ishqingga *makon* bo'lg'usidur

Keyin baytdagi *makon* soʻzi esa ishqni nihonni aniqlash vazifasini bajargan. Shoir oshiq ishqni makonini tasvirlashda tashbih, istiora, tanosub sanʼati orqali bu tasvirni tabiatdan oladi. Gʻuncha bagʻridagi jola eng toza suvdan iborat boʻladi. Gʻuncha ana shu joladan ozuqa oladi. Jolaning oʻrni gʻunchaning bagʻri, kuzatilsa, gʻunchaning hech bir aʼzosi suvni oʻzida saqlay olmaydi. Faqatgina gʻuncha barglari tubida, bagʻrida suv yigʻilib qolishi mumkin. Gʻuncha barglari bilan suvni, jolani himoya qiladi, asraydi. Chunki gʻuncha ana shu jola sabab - tirik. Oshiq ham gʻunchadek jolasini bagʻrida asraydi. Oʻz koʻnglini, xasta koʻnglini ishqning toza makoni ekaniga ishora qiladi.

Dard-u ishqing dogʻi ul soatki oʻlsam jon aro

Jonning ikki nuqtasi yangligʻ *nishon* boʻlgʻusdur.

Keyingi baytdagi *nishon* soʻzi esa matlaʼda tasviri keltirilgan jonning taqdrini belgilab beradi. Demak, shoir har bayt qofiyasida jonning, jondagi ishqning maʼlum sifat va taqdirini tasvirlab beradi. *Jon* soʻzining shakl jihati va mazmun butunligida oʻziga xos tasvir uslubini yaratgan shoir, kitobat sanʼati vositasida *jon* soʻzidagi *jim* va *nun* harflari nuqtalari orqali dard va ishqning dogʻiga ishora qiladi. Oshiq maʼshuqa dardi va ishqning dogʻi natijasida oʻlishini taʼkidlab, buning javobi va sababini *jon* soʻzining ichidan (*jon aro*) topish mumkinligini taʼkidlaydi. Shu ikki sifatni dard va ishq dardining jon soʻzidagi ikki nuqtaga qiyoslaydi.

Navoiyning hamd va naʼt gʻazallarida keltirilgan qofiyadosh soʻzlar ham oʻz mazmun-mohiyatiga monand gʻazal ruhi va pafosini belgilab bergan. Shoirning “*Yuzing koʻzgusidin olamda yuz nur-u safo paydo*” misralari bilan boshlanuvchi gʻazalida keltirilgan *safo*, *nopaydo*, *davo*, *intiho*, *balo*, *ranj-ano*, *jafo*, *barqi jafo*, *fano*, *sango*, *navo* qofiyadosh soʻzlari Yaratgan sifati va bandasining uning oldidagi vazifalariga ishora qiladi va kitobxon ayni qofiyadosh soʻzlar orqali shoirning badiiy maqsadi maʼlum qadar anglagandek boʻladi.

Yuzung koʻzgusidin olamda yuz nur-u safo paydo,

Quyosh andin aningdekkim quyoshdin zarra *nopaydo*.

Baytda tasvirlangan Allohning qudrati bilan paydo boʻlgan, yaralgan olam tasviri *safo*, *nopaydo* qofiyadosh soʻzlari orqali keltirilgan. Qurʼon karim oyatlari mazmuni singdirilgan ushbu baytda hech bir zarra Uning ijozatisiz paydo boʻlmagani, har zarrada Yaratganning moʻjizasi aks etgani qofiyadosh soʻzlar zamiriga yashiringan. Quyoshning kichik zarrasigacha Allohning qudrati asosida yaralgani badiiy mahorat bilan berilgan.

Sening koʻyung nasimigʻa oʻzin soldekki jon toptik,

Masih anfosidin gar xastagʻa boʻlmas *davo* paydo.

Keyingi bayt matlaʼning mantiqiy davomi sifatida *davo* soʻzidagi mohiyat va teranlik vositasida Allohdan boshqa najot yoʻqligi, har qanday mushkulot, xastalik va muammoning yechimi Oʻzining ishq va nazariga bogʻliq ekanligi tasviri talmih, tashbih, tanosub sanʼati orqali keltirilgan.

Navoiy gʻazallari rang-barang obrazlar tizimga ega. Bu obrazlar shoir poetik tafakkuri mahsuli oʻlaroq baʼzi gʻazallarda yengil ifoda va betakror soʻz oʻyini vositasida berilsa, baʼzi gʻazallarida falsafiy oʻy va mugʻohada orqali tasvirlangan. Shoirning lola obarazi tasviri keltirilgan bir qancha gʻazallari mavjud boʻlib, ular orasida “*Qoʻz qonidin dema etagim lolavordir*” matlasi bilan boshlanuvchi oʻziga xos tasvir uslubi va qofiya tizimiga ega gʻazalida obraz lola soʻzi va unga ulangan soʻz va grammatik shakllar orqali ifodalangan.

Koʻz qonidin dema, etagim *lolavordur*

Kim, koʻhi dardning etagi *lolazordur*.

Har lola bir axgar erur, lek siynaso‘z,
Qay ko‘hi dard aro bu sifat *lola bordur*.

Bir gul yuzi firoqida xunobi ashk ila
Yuz za‘faroni ichra ko‘zum *lolakordur*.

Ey poymol etarlar uzub dasht-u tog‘ aro,
Baskim, yuzung guli qoshida *lola xordur*.

Qon ichra g‘arq bag‘rim aro dog‘u dasht uza,
Bekasligim chog‘ida manga *lola yordur*.

Soqiy, ketur surohiy ila lolagun qadah,
Xossa bu damki subh yeli *lolabordur*.

Tegramda ohdinki erur, ey Navoiy, o‘t,
Ko‘z qonidin dema, etagim *lolavordur*.

Baytlardagi *lolavor*, *lolazor*, *lola bor*, *lolakor*, *lola xor*, *lola yor*, *lolabor*, *lolavor* qofiyadosh so‘zlarining o‘ziyoq lola obrazining tashqi va ichki belgisi, o‘z va majoziy ma’nolarining tasavvurini bera oladi. Mumtoz adabiyotda lola obrazi qalb, ko‘ngil obrazlari bilan parallel ravishda ishlatiladi. Lola bilan bog‘liq rang va barglarining joylashuv o‘rni oshiq qalbi va bag‘ri sifatleri bilan uyg‘un tasvirlanadi. She’rda har bayt lola obrzaliga bog‘liq holda tasvirlangan.

Ko‘z qonidin dema, etagim *lolavordur*

Kim, ko‘hi dardning etagi *lolazordur*.

Matla’ shoir lola vositasida ko‘zga ishora qiladi. Baytning ikkinchi misrasida esa mohiyatga mos tarzda tamsil vositasida hayotdan misol keltiradi. Ishq dardida yig‘lay-yig‘lay, ko‘z qon bo‘lgan. Shoir oshiqqa ko‘z qonidan etagim loladay qizil demasligini, haqiqiy tog‘lar, dard tog‘lari etaklari doim loladan iborat lolazor bo‘lishini aytadi. Baytda shoir haqiqiy oshiq tasvirini keltirgan, iztirob chekkan, ayriliqdan ko‘zyosh to‘kkan chin ma’nodagi oshiqning ko‘zi va uning past qismi – etagi har doim qizargan, belgili turishi tasvirini keltirgan.

Har lola bir axgar erur, lek siynaso‘z,

Qay ko‘hi dard aro bu sifat *lola bordur*.

Keyingi baytda loladagi qizillik sifatida boshqa jihatiga ko‘ra izohlanadi. Har bir lola qalbdagi, oshiq ko‘ksidagi cho‘g‘ning natijasidir, dard tog‘idagi har bir lolada ham ayni sifat bor. Baytdagi *lola bordur* qofiyadosh so‘zi shu mohiyatga ishora qiladi.

Bir gul yuzi firoqida xunobi ashk ila

Yuz za‘faroni ichra ko‘zum *lolakordur*.

Baytdagi lolakor – lola ekuvchi, qon yosh sepuvchi so‘zi yuz va ko‘z so‘zining qiyosini keltirishda kalit vazifasini baargan. Bir gul yuz firoqida ko‘z yosh to‘kkan oshiqning yuzi za‘faron, za‘faron yuz ichida esa qip-qizil loladek ko‘zlar joylashgan. Baytdagi yuz va ko‘zning ikki tazod – teskari sifati ko‘z va yuzning eng yuqori darajadagi qiynalgan holati tasvirini beradi. Shoir yig‘idan loladek qizarib ketgan ko‘zga nisbatan ayriliqdan sarg‘ayib ketgan yuz tasvirini bir-biriga zidlantiradiki, bu orqali oshiq ahvolini to‘g‘ri tasavvur qilish imkonini beradi.

Ey poymol etarlar uzub dashtu tog‘ aro,

Baskim, yuzung guli qoshida *lola xordur*.

Navoiy ijodida ko‘z tasviri va obrazi shoir juda ko‘p murojaat qilgan obrazlardan biridir. Ko‘zga berilgan tasavvufiy sifat va badiiy obraz sifatida darajoti juda katta tadqiqotlar uchun manba bo‘lib xizmat qilgan. Xo‘sh, ushbu baytdagi *lola xordur* qofiyadosh so‘zining ko‘zning qay jihati bilan bog‘liqligi bor? Ko‘z - ko‘ngil oynasi, ko‘ngildagi sirlar, muammolar ko‘zda zohir bo‘ladi. Har qanday go‘zallikning maftuni ham dastlab ko‘zda akslanadi. Ya‘ni Navoiyning “Jong‘a chu derman” deb boshlanuvchi g‘azalida keltirilganidek, ko‘ngilga ishq tushishini asosiy sababi ko‘z, ko‘zning qarashidir. Ushbu baytda ham shoir ma‘shuqaning istioraviy tasvirda keltirilgan gul yuzi oldida oshiqning ko‘zi xor ekanligini mohirona tasvirlaydiki, bu tasvirni tamsil orqali tog‘ va dashtlarda lolani uzib, poymol etishlari bilan dalillaydi.

Qon ichra g‘arq bag‘rim aro dog‘u dasht uza,

Bekasligim chog‘ida manga *lola yordur*.

Keyingi baytda keltirilgan *lola yordir* qofiyadosh so‘zi esa shoir bekasligida – yolg‘izligida lola bilan hamdard ekanligiga ishora qiladi. Lirik qahramonning ham xuddi loladek bag‘ri qon, shu sababli u lola bilan do‘st tutinadi. Ikki obrazni sifatlar birligi birlashtiradi.

Soqiy, ketur surohiy ila lolagun qadah,

Xossa bu damki subh yeli *lolabordur*.

Shoir keyingi baytda lolaning qizil rangini may rangi bog‘laydi. Soqiyg‘a murojaat tarzida boshlangan baytda surohiy idishida lolarangli qadahda lola rangli may keltirishishini so‘raydi. Shoir baytdagi har bir predmetni, hatto hodisani ham lola rangi bilan bog‘laydi, subh yeli rangi ham lolabor, qizartiruvchi.

Tegramda ohdinki erur, ey Navoiy, o‘t,

Ko‘z qonidin dema, etagim *lolavordur*.

Radd ul-matla’ asosida keltirilgan maqta’da shoir bevosita o‘ziga murojaat etib, atrofi ishq o‘tidan, o‘t natijasidagi ohdan iborat bo‘lganidan keyin ko‘z qonidan etagi lolavor bo‘lishi tabiiy holat ekanini sabab sifatida keltiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Navoiy lirikasida qofiya butun sitemasi sifatida g‘azal baytlarini birlashtirib turadi, qofiyadosh so‘zlarning o‘zi ham tanosub san‘ati vositasida bir uyaga birlashadi. Baytlarda keltirilgan qofiyadosh so‘zlar mazmunan yaqin g‘azal ruhi va mohiyatida o‘zida aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Badoye’ ul-vasat. TAT. 10 jildlik. 3-jild. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
2. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. TAT. 10 jildlik. 2-jild. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
3. Atoullloh Husayniy. Risolai qofiya. Ba kushish Fozil Abboszoda, Doktor Rajab Tavhidyon. - Tehron. H.1393.
4. Alibeg Rustamiy. Saylanma. 2 jildlik. 1-jild. . -T.: Zilol buloq. 2022.
5. Alibeg Rustamiy. Saylanma. 2 jildlik. 2-jild. . -T.: Zilol buloq. 2022.
6. Hamroyeva O. Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T: BOOKPRINT, 2022.
7. Hamroyeva O. Temuriylar davridagi poetikaga doir risolalarda qofiya ilmining qiyosiy tahlili. Monografiya.-T: BOOKPRINT, 2022.

8. Shamsi Qaysi Roziy. Al-Mu'jam fi ma'oyiri ash'oru-l-ajam. - Dushanbe: Adib, 1991.
9. Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog'a. - T.: Xazina, 1996.
10. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balog'a. (Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev, J.Jo'rayev) -T.: MUMTOZ SO'Z. 2016.

MUNDARIJA – СОДЕРЖАНИЕ – CONTENTS

MUMTOZ ADABIYOT TALQINLARI

Bo‘riyev Jaloliddin Aliqulovich. Millat, qadriyat va davlat an‘analari ming yillik jahon adabiyoti durdonasida.....	3
Murtazoyev Bobonazar Xurramovich. Munjik Termiziy: hayot va ijod yo‘liga chizgilar.....	7
Jo‘rayev Jamoliddin Aminjonovich. “Gulshan ul-asror” hikoyatlarida Mahmud G‘aznaviy va Amir Temur obrazlari talqini.....	15
Qorayev Sherxon Po‘latxonovich. Ashtarxoniylar sultoni subhonqulixon ilmiy-ijodiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari.....	21
Eshonkulova Surayyo Isomiddinovna. Obrazlarda hayotiy talqin va badiiylik.....	28
Shodmonov Nafas, Qorayev Sherxon. Xorazmlik hukmdor shoirilar sulolasi.....	33
Nuriddinov Shahobiddin. Komil Xorazmiy devonining janriy tarkibi to‘g‘risida.....	47

NAVOIY IJODIYOTI

Rajabova Marifat Bakoevna. Alisher Navoiy ijodida yig‘i–yo‘qlov stilizatsiyasi.....	53
Bekova Nazora, Hayot Latipov, Zarina Sayliyeva. “Gulshani roz” hamda “Lison ut-tayr” asarlarida so‘fiylik va irfon talqini.....	56
Hamroyeva Orzigul Jalolovna. Shoir badiiy maqsadining qofiyada aks etishi.....	70

ZAMONAVIY ADABIYOTGA OID TADQIQOTLAR

Axmedova Shoir Nematovna. Sharof Rashidov – tanqidchi sifatida.....	76
Murodov G‘ayrat Nekovich, Saidova Rayhonoy Abdug‘aniyevna. Romanda aktrativ diskursning o‘rni.....	81
Soatova Nodira Isomitdinovna. Badiiyatda hayotiylik, ijodiylik va talqin masalasi.....	86
Turopova Parizod Shavkat qizi. Milliy qadriyatlar tasvirida adib uslubining o‘ziga xosligi.....	96
Davronova Shohsanam G‘aybulloyevna. Isajon Sultonning “Qo‘riqchi” hikoyasida tabiat tasviri.....	102
Xolmuratova Moxira Egamberganovna. Isajon Sultonning tarixiy romanlarida poetik struktura va badiiy to‘qima uyg‘unligi.....	106
Pardayeva Zulfiya. Ulug‘bek Hamdamning “Yo‘l” romani: talqin mahorati va tahlil san‘ati. Roman poetikasiga kirish.....	110
Elmonova Malikabonu. Zulfiya Qurolboy qizi hukoyasida yolg‘izlik motivi.....	117

FOLKLORSHUNOSLIK

Nasirov Azimiddin Normamatovich. Badiiy asarda tush ifodasi: xarakter va ruhiyat birligi.....	120
Ro‘zmetova Sohiba. Xalq og‘zaki ijodida ajdodlar kulti bilan aloqador tug‘ilish.....	125